



UZLUKSIZ EKOLOGIK TA'LIMNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Savriyeva I. B.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: zamonaviy ekologik ta'lim, ekologik ta'limning didaktik tamoyillari, ekologik kompetentlik darajalari, umumiy pedagogik yondashuvlar.

Ключевые слова: современное экологическое образование, дидактические принципы экологического образования, уровни экологической компетентности, общепедагогические подходы.

Key words: modern environmental education, didactic principles of environmental education, levels of environmental competence, general pedagogical approaches.

Kirish. Bugungi kunda aholining ekologik bilim, ko'nikma va madaniyatini yuksaltirish, atrof-muxitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat boyliklarni asrab-avaylash hissini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda ekologik ta'lim-tarbiyaning ro'li katta. Ekologik ta'lim-tarbiya tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Bu, o'z navbatida, pedagog kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi.


Uzluksiz ekologik ta'lim tizimining didaktik va tashkiliy tamoyillari aniqlangan, lekin tizimning o'zi hali shakllanmagan. Ekologik ta'lim – bu munozaralar, tajribalar maydonidir. [1].

N.M. Mamedov, I.T. Suravegina ekologik ta'lim tuzilishining asosiy didaktik tamoyillarini ajratib ko'rsatishdi [2]:

- √ ilmiylik. U inson yashash muhitining ekotizim tuzilishini, insonning biosfera va kosmos bilan aloqalarining xilma-xilligi va murakkablashishini tushunishdan iborat;
- √ insonparvarlik. Jismoniy va ma'naviy sog'likka yo'naltiradi. Iste'mol madaniyati va sog'lom turmush tarzini tarbiyalaydi;



- √ prognoz qilinish. Prognoz qila olish qobiliyati, kelajak haqida g‘amxo‘rlik ehtiyojlarini tarbiyalash;
- √ ma’lumotni bosqichma-bosqich ajratish. Global, mintaqaviy va mahalliy darajadagi omillarning majmui [3];
- √ haqiqiy ekologik faoliyat. Ekologik muammolarni hal qilishda hammaning ishtirok etishi.



Taklif qilingan tamoyillar MDH davlatlari uchun ekologik ta'lim tamoyillari tuzilishi asosiga qo'yildi [4].

Ekologik ta'limda uzluksizlik tamoyilini amalga oshirishda umumiy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. B.V. Kalinin quyidagilarni ajratib ko'rsatadi [5]:

1. Sub'ekt-sub'ekt yondashuvi. U talaba va o'qituvchi o'rtasida teng huquqli o'zaro munosabatlarga asoslanadi.

2. Interfaol usul. U "o'quvchilarni o'zlarining mohiyatini namoyish etadigan va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabat o'rnatadigan nazorat qilinadigan faol muloqotga sho'ng'ishga" asoslanadi [6].

3. Xolistik yondashuv. Bu bosh miyaning ikkala yarim sharini rivojlantirishga qaratilgan usullar va o'qitish shakllaridan foydalanishga asoslanadi. Ilmiy ekologik ma'lumotlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi [7].

4. Fasilitatsion yondashuv. Mazkur yondashuv o'quvchining o'quv jarayonining faol tomonini oladigan, o'qituvchi esa faqat osonlashtiruvchi bo'ladigan vaziyatni yaratishni nazarda tutadi.

Zamonaviy ekologik ta'lim – bu inson ongining turli sohalari nazariyalari, tushunchalari, g'oyalari asoslangan bilimlarning murakkab fanlararo sohasidir. Yuqorida aytilgan ekologik ta'limdagi tamoyillar va yondashuvlar uning asosini tashkil etadi, biroq ushbu bilim sohasining barcha elementlarini tizimli ravishda birlashtirish va bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradigan tamoyil kerak.

"Tizimli differentsiatsiya tamoyili zamonaviy neyrofiziologiya fani tomonidan rivojlantirilgan yangi tamoyil bo'lib hisoblanadi" [8]. Ushbu tamoyilga ko'ra "voqelikni chuqur tahlil qilishni nazarda tutadigan murakkab kognitiv tuzilmalar oddiyroq tuzilmalardan ularni asta-sekin bo'lish orqali rivojlanadi". Tizimli differentsiatsiya tamoyiliga asoslanib, T.N. Karopa ekologiya bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish uchun qo'yidagi talablarni taklif qiladi [7]:

1. Ekologiyani o'qitish umumlashtirilgan g'oyalar va tushunchalardan boshlanishi kerak.

2. Asosiy ekologik qonunlarni dastlab ochib berish kerak, bunda amaldagi material ularni isbotlash va tushunish uchun jalb qilinadi.

3. Qonuniyatlarni, nazariy qoidalarni o'z bilimlari va shaxsiy tajribasi asosida konkretlashtirish qobiliyati [9].

Uzluksiz ekologik ta'limning mintaqaviy tizimlarini joriy etish amaliyoti [10] shuni ko'rsatadiki, eng qiyin va ishlab chiqilmagan muammo bo'lib o'qitishning turli bosqichlarida izchil fundamental tarkibga ega o'quv dasturlari



mazmunini loyihalash bo‘lib chiqdi. Vujudga kelgan muammoni hal qilish uchun oliy ta‘lim va maktab ta‘limi orasida kelishilgan choralar ko‘rilishi zarur.

Uzluksizlik tamoyilini amalga oshirishda muhim moment bo‘lib ta‘lim dasturlari bosqichlarini didaktik ravishda malakali moslashtirish [11], har bir ta‘lim tuzilmasi uchun o‘quv yuklamasining mazmunini va hajmini uning darajasiga qarab belgilash hisoblanadi [12].

Ekologik ta‘lim bo‘yicha pedagogik adabiyotlarda ekologik kompetensiya darajalari aniqlangan [12]. 1-jadvalda ekologik kompetensiya darajalari va ularning fan mazmuni ko‘rsatilgan. Ko‘rinib turibdiki, ekologik kompetensiya darajalari mashg‘ulotning ma‘lum bir bosqichi bilan bog‘liq emas, ular faqat fan mazmuni bilan tavsiflanadi. Bizning fikrimizcha, har bir ta‘lim darajasi uchun fan va asosiy kompetentliklar aniqlanmagan.

1-jadval

Ekologik kompetentlik darajalari

Darajalar	Nomlanishi
Oliy	Ekologik muammolarni ijodiy hal qilish
Kasbiy-yetarli	Shaxsni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarziga jalb qilish orqali insonning, insoniyatning ekologik barqaror rivojlanishini ta‘minlash
Yuqori umumta‘lim	Klassik ekologiya, inson ekologiyasi, global va ijtimoiy ekologiyaning tuzilishi va o‘ziga xos muammolari xususiyatlariga yo‘naltirish; barqaror rivojlanish g‘oyasini va uni amalga oshirishning mumkin bo‘lgan usullarini asoslash
O‘rtacha	Turli darajadagi ekotizimlarning ishlashiqonuniyatlariga yo‘naltirish, sog‘lom turmush tarziga jalb qilish
Elementar	O‘z hududidagi ekotizimlarning: maktab – maktaboldi joylar – kichik nohiya – shahar – viloyat darajasi va shakllarini aniqlash; tirik organizmlar va ularning turkumlari ekologiyasi; inson ekologiyasi
Boshlang‘ich	Ekologik tushunchalar va belgilarning asosiy tamoyillari va xususiyatlarini ochib beradigan atamalar va so‘zlarni talaffuz qilish, yozish, o‘qish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish

Biznes vakillari maxsus tayyorgarlikka nisbatan ishlashga tayyor bo‘lishga ko‘proq manfaat bildiradilar. G‘arb mamlakatlarida menedjerlar uchun asosiy kompetensiyalar sxemalari (Gollandiya va Buyuk Britaniya sxemalari) ishlab chiqilgan, Germaniya va Avstriyada kompetentlikli yondashuvdan foydalanib ta‘limni isloh qilish dasturi ishlab chiqilgan. Rossiya ta‘limida A.V. Barannikov tomonidan asosiy kompetentliklar stukturasi aniqlangan [11].

**Adabiyotlar:**

1. Olimov, K. T., Nazimova, F. R., & Alimov, A. A. (2012). Lichnostno-deyatelnostno-orientirovannye tehnologii v nepreryvnom professionalnom obrazovanii. *Obrazovanie cherez vsyu jizn: nepreryvnoe obrazovanie v interesax ustoychivogo razvitiya*, 10(2), 219-221.
2. Olimov, K. T., Khimmataliev, D. O., Ashurova, S. Y., Gaffarov, F. H., & Karimova, N. N. (2020). Competent training of future specialists on the basis of acmelogical approach. *Journal of Critical Reviews*, 7(15), 2476-2483.
3. Abdurasulovich, K. J., Abdurasulovich, K. O., Yangiboevich, K. M., Anvarovich, A. A., & Xolmurodovich, G. A. (2020). Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education. *Journal of Critical Reviews*, 7(14), 89-93.
4. Olimov, K. T., Gaffarov, F. X., & Rasulov, A. A. (2015). Registratsiya kachestva effektivnosti uchebnikov po spetsialnym dissiplinam professionalnogo obrazovaniya. *Molodoy uchenyy*, (10), 1244-1246.
5. Anvarovich, A. A., & Faxritdinova, T. S. (2021, October). Foreign experiences in modern teaching of specialties in engineering. In *Archive of Conferences* (pp. 192-198).
6. Maxmudovich, X. M., Kuchkorovich, J. A., & Xo'Jjiyev, M. (2021). Technology of using E-learning modeling programs in teaching special subjects in professional education. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 5403-5411.
7. Alimov, A. A., Olimov, K. T., & Gaffarov, A. K. (2018). Preparing Future Teachers of Vocational Education for Innovative Activity in Uzbekistan. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
8. Abdurasulovich, K. J., Anvarovich, A. A., Mamatkulovich, Y. U., Yangiboevich, K., & Sobirovna, M. M. (2020). The advantages of the methodology of preparing students for innovative activity on the basis of visual teaching of special disciplines. *Journal of Critical Reviews*, 7(14), 1244-1251.
9. Alimov, A. A., Toirov, B. B., & Savrieva, I. B. (2020). Umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil etish va baholash. *Science and Education*, 1(8), 199-206.
10. Alimov, A. A., Savrieva, I. B., & Amonov, E. I. (2019). Methods of improving the quality of training of qualified engineering staff on the basis of personality-oriented innovative technologies. *Informatsiya i obrazovanie: granisy kommunikatsiy*, (11), 76-78.
11. Alimov, A. A. (2018). Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash: *Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) monografiyasi avtoreferati*.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalar ongida ekologik ta'lim va tarbiyani shakllantirishning dolzarbliigi hamda ushbu vazifalarni amalga oshirishda uzluksiz ekologik ta'limning didaktik tamoyillari ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье показана важность формирования экологического образования и воспитания в сознании учащихся, а также дидактические принципы непрерывного экологического образования при реализации этих задач.

SUMMARY

This article shows the importance of forming environmental education and upbringing in the minds of students, as well as the didactic principles of continuous environmental education in the implementation of these tasks.